

“BOBURNOMA” ASARIDA QO‘LLANILGAN GIDRONIMLAR. SUV HAVZA VA SUV INSHOOTI NOMLARI HAMDA ULARNING ETIMOLOGIYASI

Doniyorova Rahima Azim qizi

Shahrisabz davlat pedagogika institute

2-bosqich magistranti

rahimaazimova7@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning noyob memuar asari bo‘lgan “Boburnoma”da keltirilgan gidronim ifodalovchi geografik nomlar, ularning turlari, o‘sha davrda qo‘llanilgan shakllari, kelib chiqish tarixi haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Annotation: This article presents information about the geographical names that represent hydronyms, their types, forms used at that time, and history of origin, as presented in the unique memoir of Zahiriddin Muhammad Babur, "Boburnoma".

Kalit so‘zlar: gidronim, suv havzalari, daryo, onomastik, hydro, onoma, toponim, ko‘l, gidronimika.

Keywords: hydronym, water bodies, river, onomastics, hydro, onoma, toponym, lake, hydronymics.

“Boburnoma”da tilga olingan gidronimlar — daryo, soy, ko‘l, buloq, ariq kabi suv obyektlari nomlari — o‘z davrining ijtimoiy, geografik va madaniy manzarasini aks ettiruvchi muhim onomastik birliklar sifatida alohida ilmiy e’tiborni talab qiladi. Shu o‘rinda gidronim tushunchasiga ilmiy asosda ta’rif beradigan bo‘lsak, gidronim yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, “hydro” — “suv” va “onoma” — “nom, ism” so‘zlarining birikishidan hosil bo‘lgan. “Toponimikaning bo‘limi—gidronimika suv obyektlarining nomlarini, ularning kelib chiqishini, atalish qonuniyatlarini o‘rganadi”¹. Gidronimlar deganda tabiiy yo‘l bilan, ya’ni inson ishtirokisiz hosil bo‘lgan suv havzalarining va odamlar tomonidan qurilgan suv inshootlarining nomlari tushuniladi. “Boburnoma” asarida esa bu kabi suv havza va inshooti nomlarini bir qator o‘rinlarda, xususan, viloyat va shaharlarning joylashuviga, tabiatiga oid tasvirlarda, Boburning harbiy yurishlari davomida borgan hududlaridagi tasvirlarda uchratish mumkin.

Ushbu bobda asarda uchraydigan gidronimlar sinxron (ya’ni, “Boburnoma” yozilgan davrdagi mavjud holati) va diaxron (ya’ni, vaqt o‘tishi davomida mazkur nomlarning o‘zgarishi, saqlanib qolishi yoki yo‘qolishi) yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Bu yondashuv gidronimlarning tarixiy qatlamlarini ochib berish, ularning

¹ Qorayev S. Toponimika (o‘quv q o‘llanma). –Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006, 57-bet.

etimologik ildizlarini aniqlash, leksik-semantik taraqqiyotini ko'rsatish, shuningdek, ular bilan zamonaviy suv nomlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi. Tahlil natijasida nafaqat til tarixiga oid ma'lumotlar, balki Bobur zamonidagi suv obyektlarining nomlash tamoyillari, ular bilan bog'liq madaniy va tarixiy aloqalar ham aniqlanadi.

E'tibor qaratish lozim bo'lgan yana bir jihati shuki, XV-XVI asrda mavjud bo'lgan gidronimlarning ayrimlari bugungi kunda mavjud bo'lmasligi mumkin, chunki aynan shu gidronim ifodalovchi suv havzasi yoki inshooti vaqt o'tishi bilan yo'qolishi mumkin. Aynan shu sababdan ham "Boburnoma"da keltirilgan gidronimlarni diaxron va sinxron tarzda tadqiq etish tilshunoslik nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga egadir.

"Boburnoma" asarida qo'llanilgan gidronimlar ikki asosiy toifaga ajratilishi mumkin:


1. Suv havzalari nomlari – bu guruh tabiiy suv manbalarining, ya'ni daryo, ko'l, buloq, soy, va dengiz kabi obyektlarning nomlarini o'z ichiga oladi. Ushbu toifadagi gidronimlar ko'pincha geografik joylashuv, suvning xususiyatlari (masalan, harorati, rangi, tiniqligi), atrof-muhit bilan bog'liq bo'lgan an'anaviy yoki tarixiy nomlash usullarini o'zida aks ettiradi. Masalan, Amu daryosi, Qizilsuv, Quruqsoy kabi nomlar nafaqat geografik joylashuvni belgilaydi, balki ularning tarixiy-etimologik ildizlari orqali o'sha davr madaniyati, til tizimi va mahalliy aholi dunyoqarashi haqida ma'lumot beradi.

2. Suv inshootlari nomlari – bu guruhga inson qo'li bilan qurilgan va boshqariladigan suv bilan bog'liq inshootlarning nomlari, masalan, kanal, ariq, sardoba, to'g'on va boshqa suv inshootlarining nomlari kiradi. Bunday gidronimlar ko'pincha ularning funksional maqsadi yoki ijtimoiy ahamiyatiga qarab shakllangan. Masalan, Xoqon arig'i, Bahjatxon havzi va boshqalar.

"Boburnoma" leksikasining kengqamrovliligini inobatga oladigan bo'lsak, suv havzasini va inshootini ifodalovchi turdosh otlarning ham bir qator shakllarini uchratishimiz mumkin. Xususan, asarda dengiz ma'nosini ifodalashda ummon so'zidan, ariq ma'nosini bildirishda rud so'zidan, katta ariq ma'nosini ifodalashda obrud so'zidan, buloq ma'nosini ifodalashda zihob so'zidan, suvning quyilish qismi ma'nosini ifodalashda qotil so'zidan, oqmaydigan suv, ko'l yoki havza ma'nosini anglatishda qora suv birikmasidan, sharshara ma'nosini bildirishda obshor so'zidan, yer ostidan o'tkazilgan suv yo'li, ariq ma'nolarini bildirishda koriz so'zlaridan foydalanilgan.

"Boburnoma"da yuqoridagi turdosh otlar bilan bir qatorda ularga atab qo'yilgan nomlar, ya'ni suv havzalari nomlari, ularning nomlanish sabablari va etimologiyasi xususida ham alohida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Suv havzalariga, yuqorida ta'kidlanganidek, shaxs ishtirokisiz hosil bo'lgan gidronimlar, ya'ni okeanlar,

daryolar, dengizlar, ko'llar, buloqlar, chashmalar kiradi. Memuarda keltirilgan suv havzalariga atab qo'yilgan nomlarni quyidagicha tasniflash mumkin:



Suv havzalariga atab qo'yilgan

1. Daryo va ko'l nomlari. Suv havzalari bir-biridan katta yoki kichikligi jihatidan farqlanib, katta oqar suv hisoblanuvchi daryolar tabiiy tarzda yer usti va yer osti suvlaridan paydo bo'ladi. "Maktab jo'g'rofiya atamallari va tushunchalari izohli lug'ati"da ham daryoga shunga o'xshash izoh keltirilgan: "Daryo – o'zi hosil qilgan tabiiy o'zandan oqadigan suv...o'z irmoqlari va tarmoqlari bilan daryolar sistemasini hosil qiladi"². Ko'llar esa daryolardan farqli ravishda chuqur joylarda tabiiy holatda to'planuvchi suvlardan paydo bo'ladi. Mazkur lug'atda ko'lga quyidagicha ta'rif berilgan: "Ko'l – quruqlikdagi chuqurliklarni to'ldirgan suv havzalari...Suv holatiga ko'ra oqar va oqmas ko'llar bo'ladi"³.

"Boburnoma"da bir qator daryo nomlari hamda ayrim o'rinlarda ko'l nomlari keltirilgan bo'lib, ulardan ayrimlari bugungi kunda ham mavjud va aynan shu nomda ataladi, ayrimlari esa vaqt o'tishi davomida fonetik yoki morfologik o'zgarishlarga uchragan. Toponimlarning bunday diaxron o'zgarishi tarixiy-geosiyosiy voqealar, mahalliy lahja va shevalar ta'siri, shuningdek, geografik joylashuv omillari bilan bog'liqdir. Xususan, Markaziy Osiyo davlatlari (Tojikiston, O'zbekiston, Turkmaniston, Afg'oniston) hududidan oqib o'tuvchi Amudaryo "Boburnoma"da Amu daryosi nomi bilan tilga olingan. Pokiston, Hindiston va Xitoy hududlaridan oqib o'tuvchi Satlaj (Sutlej) daryosi asarda Satluj nomi bilan berilgan. O'zbekiston va Qozog'iston hududlaridan o'tuvchi Sirdaryo esa tarixiy manbada Sayxun va ayrim joylarda Xo'jand suyi nomlari bilan qayd etilgan. Xuddi shuningdek, Xitoy, Hindiston va Pokiston hududlaridan oqib o'tuvchi mashhur Hind/Indus daryosi "Boburnoma"da Sind nomi bilan atalgan.

Toshkent viloyati hududidan oqib o'tuvchi Chirchiq daryosi asarda Chir nomi bilan, Afg'onistonning shimoliy qismidagi Balxob/Balx daryosi esa "Vaqoe"da Balxob deb berilgan. Shuningdek, ayrim daryolar va irmoqlar nomi esa asarda "suyi" affiksi orqali ifodalangan. Bunday misollar qatoriga Bajur suyi, Bora suyi, Karmnos suyi, Gandak suyi, Gulbahor suyi, Kishm suyi, Tus suyi, Chir suyi, Bahat suyi, Balxob suyi kabi nomlarni kiritish mumkin.

² Maktab ju'g'rofiya atamallari va tushunchalari izohli lug'ati. — T.: Ўқитувчи, 1994. — Б.32.

³ Maktab ju'g'rofiya atamallari va tushunchalari izohli lug'ati. — T.: Ўқитувчи, 1994. — Б.61.

Bu atamalar tizimi o'z davri geografik terminologiyasi va daryolarni nomlashdagi leksik uslubni o'rganishda muhim manba vazifasini bajaradi. Ayniqsa, daryolar nomlarining qadimgi va hozirgi nomlarini qiyoslash orqali toponimik jarayonlarning diaxron taraqqiyoti, fonetik va leksik o'zgarish tendensiyalari aniqlanishi mumkin. ““Boburnoma” uchun qisqacha izohli lug‘at”da esa suy so‘zi quyidagicha izohlangan: “Suy – suv; Xo‘jand suyidin o‘tarda Tanbalning qalin kishisig‘a uchrab, ilikka tushti”⁴.

Asarda qo‘llanilgan daryo nomlarining etimologiyasiga e’tibor qaratiladigan bo‘lsa, Bobur tomonidan Amu daryosi/Amu suyi shakllarida, ba’zi o‘rinlarda suyi va daryo kabi gidronimik ko‘rsatkichlarsiz ifodalangan bo‘lsa-da, mazkur daryo tarixda ko‘p o‘rinlarda Jayxun, ba’zi manbalarda esa Obi Omuya ko‘rinishlarida nomlangan. Yununlar esa Amudaryoni Oks/Oksus yoki Oksos deb nomlashgan. Daryoning ayrim qismlari o‘zi oqib o‘tuvchi hududlar nomi bilan atalganligi ham tarixdan ma’lum, ammo Amudaryo nomi tarixda Omul/Omuyya deb nomlangan shahar nomidan kelib chiqqanligi haqidagi fikrlar asoslidir. “O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati” da Amudaryo gidronimining etimologiyasi haqida quyidagicha ma’lumot keltirilgan:

“H. Hasanovning yozishicha, “Daryoning ayrim qismlari Jaryob, Balx daryosi, Termiz daryosi, Kolif daryosi, Urganch daryosi, Xorazm daryosi, Jurjoniya daryosi nomlari bilan yuritilgan. Omul (Omuyya – XV asrdan buyon Chorjo‘y) shahri yonida esa Omuy daryosi deb atalgan, keyin qisqacha Amu bo‘lib qolgan (bu so‘zlarning asl ma’nosi hozircha noma’lum; ehtimol, amurd ismli xalqqa daxldordir). Zamonlar o‘tishi bilan daryo tamomila shu nom bilan atala boshlagan”⁵.

Demak, Amudaryo nomi tarixda Omul/Omuyya deb atalgan Chorjo‘y (hozirgi Turkmanobod) shahri nomidan kelib chiqqan. “Boburnoma”da O‘rta Osiyoning eng uzun daryosi bo‘lmish Sirdaryo va uning uchta katta irmog‘i haqida ham ma’lumotlar keltirilgan. Yuqorida ta’kidlanganidek, Sirdaryo nomi asarda keltirilmagan, aksincha u Sayxun yoxud Xo‘jand suyi deya zikr etilgan. Asarda keltirilgan Sirdaryoning irmoqlaridan ikkitasi bugungi kunda daryo sifatida, bittasi esa soy sifatida mashhurdir. Bu ikki daryo esa O‘zbekiston hududidagi Chirchiq va Qozog‘iston hududidagi Aris/Oris daryolaridir:

“Yana Turkistonda Aris suyi yoqasida, Samarqand navohisini chopib boradurg‘on o‘zbek bila Aris suyini muz bila kechib, yaxshi bosib, asir va molni ayirib, tamom egalariga yondura berib, hech nima tama’ qilmadi... Sulton Ahmad mirzokim, Toshkandga mo‘g‘ul ustiga cherik tortib, Chir suyinikim, Toshkandtin ikki shar’iy yo‘l

⁴ Исҳоқов Ф. “Бобурнома” учун қисқача изоҳли луғат. — Андижон: Андижон нашриёт-манбаа, 2008. —Б.157.

⁵ O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati [Matn]: lug‘at / tuzuvchilar R.Y.Xudoyberganov [va boshq.]. – T.: Donishmand ziyosi, 2022. —B.19.

bo'lg'ay, bu suvning yoqasidakim shikast topti, O'ratepada Hofizbek do'ldoy edi, Umarshayx mirzoga berdi"⁶.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. — Тошкент: “Янги нашр”, 2019.
2. Йўлдошев Б. “Ўзбек ономастикаси масалалари” танланма фанидан ўқув-услубий қўлланма. — Самарқанд: СамДУ нашри, 2011.
3. Qorayev S. Toponimika (o'quv qo'llanma). —Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006.
4. Қораев С. Географик номлар маъноси. — Тошкент: Ўзбекистон, 1978.
5. Бегматов Э., Улуқов Х. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. — Наманган, 2006.

⁶ Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома (академик нашр). — Т.: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1960. — Б.65.